

**SATIRA JANRINING JAHON ADABIYOTIDAGI KLASSIFIKATSIYASI  
(O'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti yozuvchilarining satirik asarlari  
asosida)**

Rustamova Jasmina Jamshid qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on Filiali Pedagogika va tillarni o'qitish  
fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili Yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: [shoxa4118@gmail.com](mailto:shoxa4118@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “satira” atamasining izohi, satira janri haqida ma'lumot berilgan. Satira janrining folklorshunoslik va adabiyotshunoslikda tutgan o'rni va uning asarlardagi ahamiyati bayon qilingan. Rus, o'zbek, yunon yozuvchilarining satiric asarlari qiyoslanib, tahlil etilgan. Adabiyotshunoslarning satira to'g'risidagi fikrlariga to'xtalib o'tilgan. Satira- komiklik tur, tasvir obyektni ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash. Voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda jamiyatdagi asossiz, no'to'g'ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi.

**Kalit so'zlar:** satira, pafos, yumor, alogizm, kemizm

**Annotation:** this article provides an explanation of the term “satire”, information about the genre of satire. The role of the genre of satire in folklore and literary studies and its significance in the works are explained. The satirical works of Russian, Uzbek, Greek writers are compared and analyzed. The opinions of literary critics on satire are touched upon. Xidmətlər- comical tours, awareness of the image object through the means of vicious laughter. Artistic reflection of reality is its own way in which unreasonable, inappropriate phenomena, vices in society are exposed. The object of satire was processed through an image created by changing the real appearance of events, exaggerating, exaggerating and using many other types of conditioning.

**Key words:** satire, pathos, humor, alogism, comedy.

**Satira janrining jahon adabiyotidagi klassifikatsiyasi. ( O'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti yozuvchilarining satirik asarlari asosida)**

Satira janri Qadimgi Rimda paydo bo'lib , san'at darajasiga ko'tarilgan . So'ngi davrlarda adabiyotning epos, lirika, drama singari turlari qatorida satira ham alohida bir adabiy tur sifatida ko'rsatiladigan bo'lib qoldi. Aslida bunday munosabat noto'g'ridir. Satira pafosdir, pafosning komizm turiga kiradi, ilgari Sharqda hajviya deb atalgan va yumorni ham o'z ichiga olgan. Satira va yumorning ajralishi demokratik adabiyotda ham sodir bo'ldi va shundan boshlab satira ham, yumor ham

alohida janrlarga aylandi , lekin ular bir- biridan naf oladi. Ammo satira yo'qotishni, yumor tuzatishni nazarda tutadi. Satira boshqa adabiy turlardan shunisi bilan farqlanadiki , unda hayotdagi mutanosiblik saqlanmaydi , balki mubolag'alarga , grotesklarga katta o'rin beriladi . Oddiy karikaturada ham hayotdagi narsalar bo'rttirilgan, orttirilgan, kulgili qiyofaga solingan holda ayon bo'ladi. Satirada kishilarning axloqiy - estetik qarashlariga muvofiq kelmaydigan , yuksak mukammallik haqidagi tasavvurlarga, muddaolarga mos bo'lmagan, tuban narsa - hodisalar kulgili tarzda fosh etiladi . " Satira chinakam satira bo'lmog'i uchun birinchidan, uning ijodkori qanday idealga tayanayotganligini aniq bilishi lozim, ikkinchidan, uning tig'i qaratilgan narsa aniq bo'lishi kerak ". Bu xususiyatlar obrazli tasvirning mazkur ko'rinishiga muayyan o'ziga xoslik baxsh etadi. O'zbek satirasi ildizlari ham uzoq o'tmishga qarab ketadi. O'zbek xalqida satira va yumorning ilk namunalari dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan, keyinchalik taraqqiy etib va rivojlanib yozma adabiyotga kirib kelgan. Satira folklorda lof , askiya, payrov, latifalarda , uchraydi. Ayniqsa, lof janri satira va yumorga asoslangan. Shunday qilib satira folklordan, birinchi adabiy yodgorliklardan o'tib, Navoiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Hoziq, Muqimiy va Zavqiylarning ijodlarida yaratildi. O'zbek satirasida Hamza, S. Ayniy, A . Qahhor, So'fizoda , A . Majidiy, Said Ahmad, X . To'xtaboyev kabi ijodkorlar yangi bosqichni boshlab berdilar. Jahon adabiyotida ham satira bo'yicha juda ko'p yozuvchilar ijod qildi. A . Chexovning " Yovuz niyatli kishi " , " Chiqdi " , "Qiyshiq oyna " Gogolning " Revizor " pyesasi, Ilf va Petrovlarning " O'n ikki stul " , " Oltin buzoqcha " kabi romanlari satiraning mukammal namunalariidandir. o'zbek va jahon adabiyotidagi satirik asarlarni qiyoslaydigan bo'lsak, Said Ahmadning " Qoplon ," Chexovning "Qiyshiq oyna " hikoyalarini taqqoslak maqsadga muvofiqdir. Bu hikoyalar janr jihatdan bir xil bo'lganligi uchun ham, ya'ni, satirik hikoyalardir, shu sababdan ham bu asarlar tanlab olindi. Satira zaharxanda kulgi hisoblanadi . Said Ahmadning "Qoplon " hikoyasi , ham xuddi shu mazmunda yozilgan. " Qoplon " hikoyasida kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaati yo'lida andisha - mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutishi , odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatishi yomon illatlar tanqidiga bag'ishlangan. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o'zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini topib olgan , hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora ko'rsatib, xo'jayining pulini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan , vaqti kelganda , shartta yangi boshliqqa xizmat qilib



ketaveradigan oriyatsiz , ablah bir shaxs qiyofasini ko'rsatib beradi. Tillayev ham uning xotini ham Qurbonboyning kimligini anglamay unga qo'llaridan kelgancha yordam beradilar. Qurbonboy Tillayevga bir it sovg'a qiladi, U itga Qoplon deb nom qo'yishgandi . Sujet ham voqea rivoji ham shu it bilan bog'liq. Xushomadining asosiy vositasi bo'lgan it - Qoplonni olib ketib , yangi rahbarga ham xuddi avvalgiday alfozda taqdim etadi. Uning surbetligi shu qadar kuchliki, Qurbonboy tillayevni yangi boshliqnikida ko'rib qolganida, nomiga bo'lsa-da uyalmaydi ham. Hatto, it eski xo'jayinini tanib, dumini likillatib erkalangani holda Qurbonboy yangi rahbarning charm to'nini artib turaverdi. hikoya so'ngida Tillayev Qoplonni ko'rib, : "Bu itni taniyman", - desa- da , achchiq istehzo bilan aytilgan so'zlarni asli Qurbonboyga qarab aytadi. Demak " it " deganda Qurbonboyning nazarda tutadi. Yozuvchi shu bilan Qurbonboy kabi buqalamun kimsalar , ablah odamlarning jamiyatda , insonlar orasida o'rni bo'lishi kerak emas, degan g'oyani ilgari suradi. Anton Chexovning " Qiyshiq oyna " hikoyasiga keladigan bo'lsak, satirik hikoya haqiqiy yechilmagan jumboq asar nomlanishidanoq kishini o'ziga jalb etadi. Hikoya qahramonlari turmush o'rtoq va uning ayoli hisoblanadi. Hikoya shunday boshlanadi : Eri xotinini ancha yillardan beri kirilmagan mehmonxonaga olib kiradi, u yer chang bosgan, hattoki, sichqonlar ham bor edi. Devorlarda yigitning ota - bobolarining rasmlari osig'liq turardi. Unga ota - bobolari xuddi seni yaxshilab savalab qo'yish kerak deganday qarardi. U yerda katta buvisining ham rasmi bor edi. U buvisi haqida xotiniga aytib beradi. Buvisi juda xunuk bo'lganligini, u bir oynani juda qimmatga sotib olganligini keyin o'tirsa ham, tursa ham, yesa ham ichsa ham uni qo'lidan qo'ymasligini aytadi. Hattoki u vasiyatida oyna bilan ko'mishlarini aytadi. Buning sababi buvisi o'ta darajada badbashara bo'lgan , oyna qiyshiq bo'lganligi uchun buvisini juda go'zal qilib ko'rsatadi. Oynani sehrli, jin - ajinalari bor ham deyishadi. U xotiniga bor haqiqatni aytib berdi. O'sha oyna ham rasmlar yonida osilgan holda turardi. Xotini borib oynani qo'lga olib qaradi , qaradida shu zahoti hushdan ketdi. Birdaniga shamol turdi. Barcha tabiat qo'zg'alganday bo'ldi. Xotini ertasi kuni kechqurun hushiga keldi. O'ziga kelib oynani so'radi, yemadi, ichmadi, uxlamadi oynani qo'lga olgach undan baxtli inson yo'q edi. Unda xuddi eri aytib bergan buvisining alomatlari yaqqol yuzaga keldi. U oynaga qarab meni barcha aldabdi ,hatto erim ham aldabdi ,agar men shunaqa ekanligimni bilganimda hech qachon bu insonga turmushga chiqmasdim, u meni jimjilog'imga ham arzimaydi, meni oyog'imga ne - ne bahodirlar, oliyjanob insonlar tiz cho'kish kerak deb aytadi. Eri hayratda xotinining bu holga tushganidan .Bir



kuni xotining orqasida turgan edi, oynaga ko'zi tushdi, oynada go'zal chehrani ko'rди, o'zining esa yuzi qiyshayib qolganini ko'rib hayratda qoldi. Shundan so'ng, u oynaning siridan voqif bo'ldi, oyna qiyshiq bo'lganligi uchun xotining baddurush aftini har tomonga qiyshaytirib go'zal ko'rsatayotgan edi. Asar ikkalasining ham faqat oyna bilan vaqt o'tkazganligi bilan tugaydi. Hikoyada birgina oyna orqali bir necha illatlarga ishora qilingan. Asar sujet jihatdan yechimi yo'q, tugun, kuliminatsiya mavjud, biroq, xulosa kitobxondandir. Chexov ijodidagi ayrim shunday hikoyalar - yechimsiz. Asar mazmuniga keladigan bo'lsak, tashqi qiyofa o'zgargani bilan, qalbimiz, ya'ni ichki dunyoyimiz o'zgarmaydi. Xotining birgina go'zal, lekin aldamchi qiyofaga ishonib darrov o'zligini unutdi. Bu asar ayrim kishilarning bir zumda avval kim bo'lganligini unutib, so'ng ma'lum bir muddatga suv yuzasiga chiqib kim ekanliklarini yodlaridan chiqarib kibrlanishlari, boshqalarga past nazar bilan qarashlari haqida hikoya qiladi. Xotining oynadagi go'zallikni deb turmush o'rtog'ini unutishi turmush o'rtog'i xotinidan ancha kelishgan, chiroyda ham anchayin ortiq edi, axir u shunday xunuk ayol bilan yashayotgan ediku. Masalaning tomoni - shunda - da. Chexov birgina oyna orqali bir necha yomon illat egalari bo'lgan insonlarga katta bir ishora qiladi. O'zbek adabiyoti satirasida xulosa bor lekin jahon adabiyoti satiralari bir muncha farq qiladi. Ularda yechim yo'q asar mohiyatining tushunilishi kitobxonga havola. Xulosa kitobxonning o'zidandir. Bunga misol qilib yunon adabiyotshunosi Aristofanning satirik komediyalari misol bo'la oladi. Asar jumboqli, tushunilishi biroz qiyin. "Bulutlar", "Tinchlik", "Arilar", "Lisistrata", "Arxarnyanliklar" kabi komediyalari misol bo'la oladi. Jonatan Sviftning satira haqida shunday fikrlari bor: "Shunday turdagi qadahki, guvohlar unda har kimning hattoki, o'zlarining yuzlarini kashf etadilar. Ular eng muhim sabab tufayli dunyo minbarida ko'rishadilar va juda kam qismi xafa bo'lishi mumkin." U bu fikrlari bilan satiraning yanada mukammal ekanligini ta'kidlamogda. Satira butun bir jamiyatdagi ijtimoiy voqealarni, kishilar orasidagi nohaqliklar, ijtimoiy tengsizlik, erksizlik, yomon illat egalarini ochib beradigan mukammal janr hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, satira Qadimgi Rimda paydo bo'lib, san'at darajasiga ko'tarilgan. Satira dastavval hajviya, yumor komiklik turiga mansub bo'lgan. Keyinchalik satira ham, yumor ham rivojlanib alohida - alohida janrlarga aylanadi. Demak, satira ijtimoiy nuqsonlarni, jamitadagi muammolarni, kishilardagi kamchiliklarni yoritib beradi.

**Ilova:**



1."Satira"(lotincha-qurama,harxilnarsa)-

komiklikhuri,tasvirobyektiniayovsizkulgiorgqalianglash.

2."Pafos"

atamasimafkuraviyvahissiybaholashsohasiniyozuvchiningo'zitomonidanqaytaishla  
bchiqarilganvatushunilganobyektivhaqiqatbilanbaholashmunosabatlarisohasiniqam  
raboladi.

3."Alogizm"(yunoncha a-inkorqo'shimchasi;logos-idrok)  
niilmiybilishdamantiqiyfikrlashningroliniinkoretadi.

4."Yumor"da hayotdagijuz'iykamchiliklaryengilkulgiostigaolinadi.

5."Komizm" biornarsaningxatti-harakat,voqea-  
hodisavaholatningkulgili,komiktomoni

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Erkin Xudoyberdiyev " Adabiyotshunoslikka kirish " " Sharq " nashryoti  
Toshkent - 2008 . 317 - 325 b
2. Muqaddas Murodova " Badiiy adabiyotda " Satira " atamasining kelib chiqishi  
." Termiz, O'zbekiston . 2021 37 - 48 b
3. Abdurahmon Alimuhammedov " Antik adabiyot tarixi " Toshkent - 1975. 175 -  
194 b
4. saviya. uz / ijod / adabiyotshunoslik / satira - sehri / - internet sayti

